

## KOGNITIV METAFORA NAZARIYASI

Usmonova Zulxumor Nazarovna

katta o'qituvchi, TDTU

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kognitiv lingvistika fanining paydo bo'lishi, til hodisalariga kognitiv yondashuv, kognitiv metafora nazariyasi yoritilgan, shuningdek ushbu sohani o'rgangan tilshunos olimlarning qarashlari qiyoslanib, ularning farqlari va ahamiyati bayon qilingan.

**Tayanch so'z va iboralar:** kognitiv lingvistika, leksik ma'no, konsept, nazariya, kategoriyalashtirish, metafora, metaforik ko'chish, o'xshashlik, verballashtirish, tashkiliy operator, semantik referent, psixolingvistika.

**Аннотация:** В данной статье описывается зарождение науки когнитивной лингвистики, когнитивного подхода к языковым явлениям, теории когнитивных метафор, а также сравниваются взгляды лингвистов, изучавших эту область, и показаны их различия и значение.

**Ключевые слова и фразы:** когнитивная лингвистика, лексическое значение, концепт, теория, категоризация, метафора, метафорический перенос, аналог, вербализация, организационный оператор, семантический референт, психолингвистика.

**Annotation:** This article describes the origins of the science of cognitive linguistics, the cognitive approach to linguistic phenomena, the theory of cognitive metaphors, and also compares the views of linguists who have studied this field, showing their differences and significance.

**Keywords and phrases:** cognitive linguistics, lexical meaning, concept, categorization, metaphor, metaphorical transfer, analogue, verbalization, organizational operator, semantic referent, psycholinguistics.

Zamonaviy tilshunoslikda tillshunoslarning kognitiv metafora nazariyasiga qiziqishlari asosiy o'rinlardan birini egallamoqda. "Kognitiv fan" termini o'tgan asrning 70-yillaridan keyin fanga kirib keldi. Tilga kognitiv yondashuvni kognitiv lingvistika fani o'rgana boshladi. Til hodisalariga kognitiv yondashuvning rivojlanishi uni bizning ongimiz va aqlimizning konseptual va kognitiv tuzilishlaridagi ma'lumotlar manbai sifatida tushunishga yordam berdi. Kognitiv yondashuv tadqiqot obyektini yaxlitlashtirish va leksik ma'nodagi tarkibiy qismlarni taqdim etish usullarini kengaytirishga imkon beradi.

Kognitiv lingvistikada barcha til jarayonlari insonning bilish faoliyati bilan olamni konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish dalolatnomalari bilan bog'liqdir. Konseptuallashtirish – bu inson ruhiyatida barcha konseptlar va konseptual tizimni hosil bo'lishga olib keladigan narsalar va hodisalarni xayolan qurish, axborotning odamga kelishini fikrlash jarayoni.

Konseptuallashtirish jarayoni kategoriyalashtirish jarayoni bilan uzviy bog'liq. Bu uzviy bog'liqlikda borliqni bilish natijalarini ma'lum kategoriyalar bo'yicha tartiblashtiradi. Agar konseptuallashtirish jarayoni kelayotgan axborotni tushununchali tasniflashdan iborat bo'lsa, kategoriyalashtirish u yoki bu munosabatda namoyon

bo'ladigan o'xshashliklar yoki o'xshashlik sifatida tavsiflanadigan birliklarning yanada kattaroq razryadlarini birlashtirishga yo'naltirilgandir. Ular yakuniy natija bo'yicha farqlanadi.

Konsept kognitiv lingvistikaning asosiy birligi hisolanadi. Ruscha matnlarda konsept terminidan to'liq foydalanish XX asrning 80-yillarida boshlandi. Shu o'rinda "konsept"ni ham izohlariga e'tibor qaratmoq lozim. Hozirgi kunda o'zbek tilshunosligining zamonaviy yo'nalishlari rivojlanishiga katta hissa qo'shayotgan olimlardan biri professor N.Mahmudov konsept termini haqida quyidagicha yozadi: "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo'nalish keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab sanog'iga yetish ham mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bagishlangan". [1, 9]

Ko'pgina tilshunoslar zamonaviy tilshunoslikdagi konsept tushunchasiga ko'p murojaat qilmoqdalar. Ye.S.Kubryakova ushbu tushunchani – olamning barcha tasviri, miya, til va konseptual tizim, mental leksik (so'z) xotiraning tezkor va mazmuniy birligi, deb izohlaydi. [2, 8]

Kognitiv tilshunoslikda metaforalar muhim ahamiyat kasb etib, uning asosi ham deb hisoblash mumkin. Ma'lum aqliy qobiliyatlar (o'xshashlik va farqni topish, mavhumlashtirish va umumlashtirish) atrofdagi voqelikdagi turli fazo-vaqt munosabatlarini konseptuallashtirish va eksperimental bilish asosida ongda shakllangan tasavvurlar va tushunchalarni qayta ko'rib chiqish jarayonida insonga metaforlash mexanizmini amalga oshirishga imkon beradi. XX asr oxirigacha kognitiv fan doirasida metaforalarni tadqiq qilish yaxlit tavsifga ega emas edi. Ushbu muammoga E.Makkomark o'zinig "Metaforaning kognitiv nazariyasi" deb nomlangan ishida alohida e'tibor qaratib, metaforani qandaydir bilish jarayoni sifatida tavsiflaydi.

E.Makkomark tadqiqotiga ko'ra metaforaning paydo bo'lishi sababi sezilarli darajada qiyoslanmaydigan, ma'lum tashkiliy operatsiyalar yo'li bilan inson ongi orqali semantik konseptlarni qiyoslash hisoblahadi. Shunday qilib metafora tuzilishi ikkitomonlama tavsifga ega. Bir tomondan, metaforani tushunishga erishish maqsadida uning semantik referentlarining o'xshashlikka ega bo'lsa, boshqa tomondan yangi ma'no shakllanishi uchun ular orasida o'xshashlik bo'lmasligidadir. Shunday qilib, kognitiv nazariyada metafora bilish (gnoseologik) funksiyasini bajaradi. [3]

Kognitiv metafora muammosi tadqiqotlari rivojlanib borgani sari ba'zi olimlar metaforani olam haqidagi tasavvurni verballashtirish natijasi sifatida tushunish mumkin, degan xulosaga keldilar. A.N.Baranov metaforik ma'noni verballashtirishni quyidagicha tavsiflash mumkinligi haqidagi fikrini aytadi: fikrlash jarayonida muallif ongdagi ikki referentni topadi va ular orasidagi fikrlash aloqasini o'rnatish yo'li bilan shakllantirishga o'tadi. Til metaforasi nutqda fikrni aks ettirish tufayli hosil bo'ladi.

O'tgan asrning 70-80-yillarida ushbu masalalar bo'yicha, xususan, A.Xili, R.Xarris, A.Ortoni va P.Reynolde shug'ullandilar.

A.Richards metafora tadqiqotiga boshqacha yondashuvni taklif qiladi va metaforik ko'chirish asosida o'zlashtirish hamda kontekst almashishi goyasining o'zaro ta'siri mavjudligini taxmin qiladi. [4, 86-89]

Keyinroq Richards fikri metafora qo'llanilishinig psixologik tomonlari, aynan, metafora tushunchasi muammosi tadqiqoti bilan shug'ullangan E.Ortoni va P.Gibbs ishlarida o'z aksini topdi. Shu bilan Richards psixolingvistika tushunchasiga, M.Blek esa mantiq tushunchasi asosiga tayanadi. M.Blek har qanday metaforik ifoda o'zida qandaydir aniq ifodaning o'rnini bosuvchi (substituti)ni namoyon qilib, bunda metaforik va aynan mazmuni o'xshash mumkinligini ta'kidlaydi. [5, 267]

J.Lakoff va M.Jonson o'zlarining "Biz yashaydigan metaforalar" deb nomlangan ishida metaforaning konseptual nazariyasiga alohida e'tibor qaratdilar. Ular konseptual metaforani bir konseptual oblastdagi bilimni boshqa konseptual oblastdagi bilimlar kesishuvi sifatida belgilaydilar. J.Lakoff va M.Jonson metaforik ko'chirish o'z-o'zidan fikrlash metaforik bo'lganligi uchun til sohasi bilan chegaralanmaydi. Aynan shuni ular metaforani "empirik asos" bilan tushuntirishga urindilar. Ular "biz o'ylaydigan va harakat qiladigan bizning birlashgan anglash tizimimiz" o'z mohiyatiga ko'ra metaforik ekanligini ta'kidlaydilar. Shunday qilib, metaforani ko'rib chiqish til tizimi chegarasidan chiqib ketadi, uni til, tafakkur va madaniyato'zaro ta'siri fenomeni sifatida tadqiq qiladilar. Lingvistlar metaforalarni konseptual deb belgiladilar va J.Lakoff hamda M.Jonson so'zlariga ko'ra "konseptual metafora" termini aynan terminlarda bir hodisani boshqasi o'rnida tushunish asosida mavjud bo'lgan kognitiv jarayon va tilning ifodalash vositalarini differensiyalash imkonini beradi. Inson faoliyati natijasida ular ma'lum konseptual metaforalar ko'rinishida shakllanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, kognitiv metafora ayniqsa, badiiyatda muhim ahamiyat kasb etadi. [6, 387-415]

#### **Adabiyotlar:**

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...//O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2012. 5-son, 9-b.

2. Кубрякова Е. С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах. Вопросы когнитивной лингвистики. 2004г. №1. стр 8

3. Лакофф Д., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем // Теория метафоры. - М., 1990. - С. 387-415

4. Маккормак Э. Когнитивная теория метафоры. Теория метафоры. М., 1990.

5. Рябов А. Г. Метафора в свете когнитивной теории // Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, 2009. - № 7. - С. 86 - 89.

6. Black M. Models and Metaphors. - New York, 1962. - 267 pp.